

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 63 620,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 6,9 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 % ga yetdi.

### 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



## Yalpi hududiy mahsulot


(2024- yil yanvar-sentabr holatiga, % taqqoslama narxda)

Ko'rsatkichlar	mlrd.so'm		2023- yil nisbatan, % hisobida
	2023-yil	2024-yil	
 <b>Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>53 688,1</b>	<b>63 620,4</b>	<b>106,9</b>
shu jumladan:			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	52 477,7	62 480,0	106,8
 Mahsulotlarga sof soliqlar	1 210,4	1 140,4	108,3
 <b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>52 477,7</b>	<b>62 480,0</b>	<b>106,8</b>
 <b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>15 899,5</b>	<b>17 672,6</b>	<b>104,0</b>
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>			
 sanoat	9 463,6	12 039,9	108,3
 qurilish	4 209,7	4 736,5	109,6
 <b>Xizmatlar</b>	<b>22 904,9</b>	<b>28 031,0</b>	<b>107,6</b>
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8 280,3	10 264,6	111,5
 tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	2 933,1	3 676,1	111,5
 boshqa xizmatlari	11 691,5	14 090,3	104,0

*Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘shish sur‘atlari YaHM o‘shishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining o‘shish sur‘ati- 104,0 %, (YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 28,3 %), sanoatda – 108,3 % (19,3 %), qurilishda – 109,6 % (7,6 %), xizmatlar sohasida – 107,6 % ni (44,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘shish sur‘atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 111,5 % (16,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,5 % (5,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,0 % dan (22,5 %) iborat bo‘ldi.

### 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘shish sur‘atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,2 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,8 %ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 28,3 %ni, sanoat tarmog‘i 19,3 %ni, qurilish 7,6 %ni va xizmatlar sohasi 44,8 %ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 44,8 %ni tashkil etdi va 2023- yil (43,7 %) bilan taqqoslanganda 1,1% punktga ko‘paydi.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

(yanvar-sentabr holatiga, jamiga nisbatan foizda)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat** ● **Mahsulotlarga sof soliqlar**

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 16,4 % ni (2023- yil- 15,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,9 % ni (5,6 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar– 22,5 % ni (22,3 %) tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi

(yanvar-sentabr, jamiga nisbatan, foizda)




- savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Joriy yilning yanvar-sentabr oylari davomida dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 15 545,2 ming so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning (13 394,2 ming so‘m) mos davriga nisbatan 4,7 %ga o‘tdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 72,9 %ni tashkil qildi.

## 2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi


(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-sentabr oyida YaHM deflyatori indeksi 2023-yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 110,9 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda– 117,4 % va xizmatlar sohasida – 113,7 % ni qayd etildi.

### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-sentabr holatiga, %da


2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 72,9 %ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 71,8 %) tashkil qildi.



Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 %ni tashkil etdi.

### YaIM da Farg'ona viloyatining ulushi, foizda



## Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

yanvar–sentabr holatiga

Hududlar	YaHM mlrd. so‘m			Aholi jon boshiga, ming so‘m		
	2023- yil	2024 - yil	%	2023- yil	2024- yil	%
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>842 711,4</b>	<b>1 015 331,8</b>	<b>106,6</b>	<b>23 207,3</b>	<b>27 384,0</b>	<b>104,4</b>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	26 219,2	30 858,7	106,5	13 207,3	15 332,7	105,0
Andijon	51 827,1	61 187,7	106,3	15 474,0	17 891,1	104,1
Buxoro	41 880,8	48 744,2	105,8	20 711,5	23 706,0	104,0
Jizzax	26 206,6	30 320,9	105,7	17 617,9	19 962,4	103,5
Qashqadaryo	48 389,4	56 803,8	106,2	13 783,8	15 825,0	103,9
Navoiy	61 640,4	81 217,6	107,4	57 987,2	75 020,9	105,5
Namangan	39 631,1	47 519,9	107,3	13 109,0	15 375,1	105,0
Samarqand	59 957,3	72 542,0	106,5	14 440,9	17 101,3	104,3
Surxondaryo	32 968,3	38 732,2	106,2	11 639,7	13 344,4	103,6
Sirdaryo	16 425,5	19 267,8	104,2	18 187,9	20 934,2	102,3
Toshkent v.	84 005,4	102 296,1	107,7	27 862,5	33 285,4	105,7
<b>Farg‘ona</b>	<b>53 688,1</b>	<b>63 620,4</b>	<b>106,9</b>	<b>13 394,2</b>	<b>15 545,2</b>	<b>104,7</b>
Xorazm	30 492,6	36 199,7	106,4	15 471,4	18 025,0	104,4
Toshkent sh.	151 185,0	193 397,6	110,0	50 565,2	63 035,0	107,2

YAHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,2 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrida – 0,8 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,5 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrida– 0,8 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,7 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrida – 0,7 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi– 3,3 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrida – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrida– 0,2 f.p.)ga ko‘paydi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida YaHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 110,9 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda– 117,4 % va xizmatlar sohasida – 113,7 % qayd etildi.